

TARBIYA BAG'RIKENGLIK MUHITINI YARATISHDAN BOSHLANADI*Aytbayeva Gulchexra Yermekbayevna,**O'zbekiston Respublikasi, Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi**<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.2.147>*

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarbiyaviy ish – uzluksiz hamda majmuaviy olib boriladigan vazifa ekanligi, tarbiya bag'rikenglik muhitini yaratishdan boshlanishi haqida hamda keying o'nyillikda tolerantlik (bag'rikenglik) tushunchasiga berilgan ta'riflar haqida so'z boradi.

Tayanch ibiralar: madaniyat, aqliy madaniyat, bag'rikenglik (tolerantlik), diniy bag'rikenglik, tarbiya

Аннотация. В данной статье речь пойдет о том, что воспитательная работа – это непрерывная и комплексная задача, воспитание начинается с создания атмосферы толерантности, а в последующем десятилетии даются определения понятию толерантность.

Ключевые слова: культура, психическая культура, толерантность, религиозная толерантность, воспитание

Annotation. This article will talk about educational work – a continuous and complex task, about the beginning of upbringing from the creation of an atmosphere of tolerance, as well as about the definitions given to the concept of tolerance (tolerance) in the decade.

Keywords: culture, mental culture, tolerance, religious tolerance, upbringing

Tarbiyaviy ish – uzluksiz hamda majmuaviy olib boriladigan vazifa hisoblanadi. Shu bois bo'lajak mutaxassislarini zamonaviy jahon madaniyati ruhi bilan raqobatda tarbiyalash bugungi kunning talabidir. Buning uchun yosh avlod nafaqat o'z ona xalqining ezgu fazilatlarini o'zlashtirishi, balki aqliy madaniyatni shakllantirishi, shaxsning intellektual sohasini rivojlantirishi zarur. Ya'ni, yosh o'smirlar ilmiy-texnik taraqqiyotning kundalik yutuqlarini yaxshi bilishlari va undan hayotiy tajribada foydalanish qobiliyatiga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Qozoq xalqining ulug' shoiri va qahramon-botiri Bauyrjan Momish o'g'li shunday deydi: "birinchidan, alla aytadigan kelinlar soni kamayib borayotganidan qo'rqaman, ikkinchidan, nevaralariga ertak aytib bera olmaydigan buvilar kamayib borayotganidan qo'rqaman, uchinchidan, hurmat nimaligini bilmaydigan yoshlarning ulg'ayayotganidan qo'rqaman. Chunki alla eshitib, ertak tinglab, urf-odatlarini bo'yiga singdirmagan bolaning ko'krak ko'zining ko'r bo'lib qolishidan qo'rqaman". Biz yosh avlodni turli tarbiya bilan tarbiyalab kelmoqdamiz. Shunga qaramay, bag'rikenglik (tolerantlik) mavzusida munozaralar, davra suhbatlari, tarbiyaviy soatlar, konferensiyalar o'tkazishda yosh o'smirlar kitob yoki internetning yodlangan so'zi bilan cheklanib qolvoqda va o'z fikrlarini tizimlashtira olmayabdi.

Afsuski, bu so'zning ildizlarida katta ma'no yashiringaniga e'tibor bermay, ular ko'pincha murosasizlik bosqichidan qanday o'tganini tushunmay, turli qiyinchilik va muammolarga duch kelishadi. Shuning uchun yosh avlodga bag'rikenglik muhitini yaratish tarbiya beshigining muqaddas ustuni ekanligini tushuntirish muhimdir [11; 28-29 b.].

Inson dunyosi – bu bitmas-tuganmas axborot almashinuvi, odamlarning bir-biri bilan aloqasi va til topishishi. XIX asr nemis faylasufi Artur Shopengauerning qarashiga ko'ra, ta'limning eng yuqori ko'rsatkichi tarbiyadir [4; 19 b.]. O'qituvchi pedagog qanday avlodni tarbiyalashi kerak, to'liq ziyoliy shaxsnimi yoki bitmas sarbozlarnimi? Bu savollar ko'pincha publisistik maqolalarda, ilmiy tadqiqotlarda, eng muhimi, kundalik hayotda va tarbiya amaliyotida paydo bo'ladi. Zamonaviy globallashuv sharoitida boshqalar bilan teng huquqli yashashga qodir, hurmat bilan, o'ziga xos xususiyatlaridan xabardor bo'lgan shaxsni tarbiyalash dolzarb

muammolardan biridir. Bu masalada muvaffaqiyatga erishish uchun, birinchi navbatda, pedagogik jarayonning yetakchi subyekti – pedagog-o‘qituvchini tayyorlashga yangicha qarash, uning bag‘rikengligini shakllantirish kerak. Tolerantlikning asosi insonning “boshqa, begona”ga munosabatini nazorat qilishdir. Bu biz har kuni duch keladigan muammo, uy darajasidan tortib professional muloqotgacha bo‘lgan hamma narsani qamrab oladi, deb ishonadi.

“Bag‘rikenglik” atamasini farqlashda olimlar o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar paydo bo‘lgan. Umumiy tarzda bag‘rikenglikning ma‘nosi nima? Uning chegaralari qanday va, umuman, chegarasi bormi? Falsafa, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va boshqa gumanitar fanlar vakillari bu savollarga azaldan javob izlab kelishadi. “Tolerantlik” atamasi chet tillar lug‘atida ikki ma‘noda sharhlanadi:

- 1) har qanday narsaga, har kimga to‘zumlilik, chidash, bag‘rikenglik;
- 2) biologik-tibbiy sohada – immunitetning qisman yoki to‘liq bo‘lmasligi, ya‘ni tananing kasallikka qarshi turadigan antitanalar ishlab chiqarish qobiliyatining pasayishi.

Neyropsixologiyada bolada immunitetning pasayishiga sabab ijobiy yaxshi so‘zlarning etishmasligi ekanligi eksperimental ravishda isbotlangan. Shu bilan birga, pedagogik lug‘atlarda bu tushunchaga “har qanday salbiy omilga reaksiyaning yo‘qligi yoki sekinlashishi; uning ta‘siriga sezgirlikning pasayish natijasi” deb ma‘lumot beradi.

Tolerantlik tushunchasi bir ma‘noda, bu “bag‘rikenglik” so‘zi bilan bevosita bog‘liq, qozoq tilida esa “murosallilik”, “sabrlilik”, “sabir”, “toqat” ma‘nolarida ham ishlatiladi, ya‘ni, “to‘zimli bo‘lish” – boshqaga, uning harakatlariga, har hil vaziyatdagi holatlariga cheksiz to‘zish va chidash demakdir.

Tolerantlik tushunchasi pedagogika ilmida keyingi o‘nyillikda G.D.Dmitriyev [8; 208 b.], A.B.Loginov [9; 44-49 b.], A.S.Menshikov [10; 162-166 b.], V.V.Samsonov [13; 20-25 b.], M.B.Xomyakov [15; 33-406 b.], J.Gerey [6;7; 153-181 b.], B.Berri [1; 204-238 b.], I.Abolin [5; 27 b.], M. Uoltser [14; 24-25 b.] singari boshqa olimlar tarafidan keng o‘rganilgan. Binobarin, falsafiy va psixologik jihatdan bu hodisani o‘rganish o‘tmishda boshlangan. Bundan tashqari, ushbu atama hozirgi ma‘noda g‘arbda ilgari qo‘llanila boshlangan, buning sababini u yerda demokratik tendensiyalar ilgari mavjud bo‘lganligidan ko‘rish mumkin. Shunday qilib, bag‘rikenglikning kelib chiqishi haqidagi an‘naviy nazariya birinchi marta J.Lokkning “Diniy bag‘rikenglik haqida murojaat” [2; 121 b.], J.S.Millning «Erkinlik haqida» traktatlari [3] bilan, J.Rolzning «Adolat nazariyasi» [12; 536 b.], «Siyosiy liberalizm» [16] singari asarlariga borib taqaladi.

“Tolerantlik” tushunchasi lotin tilida “sabr” degan ma‘noni anglatadi, ya‘ni, boshqalarning dunyoqarashi va turmush tarziga toqat (chidam, to‘zim) qilish, bardosh berish. Ijtimoiy bag‘rikenglik boshqa odamlarning qarashlariga va boshqalarga, ularning madaniyatiga hurmatni tushunishni anglatadi. Tolerantlik munosabat – bu inson huquqlari, erkinligi va xavfsizligini ta‘minlaydigan ijtimoiy qadriyat. “Tolerantlik” tushunchasi pedagogik lug‘atga kiritilgan, chunki hozirgi vaqtda oilalararo, millatlararo totuvlik tushunchasi bilan bevosita bog‘liq va avlodlarga bag‘rikenglikni singdirish tarbiyasi masalasidir.

Tarbiya – bu yosh avlod tomonidan asrlar davomida to‘plangan bo‘lib, odamlarning fazilatlarini singdirish, bolaning atrof-muhitga munosabatini, hayotga munosabatini shakllantirishdir. Oila bola hayotidagi eng asosiy tarbiya manbayi hisoblanadi. Ota-onalarning eng konstruktiv ijtimoiy faoliyati bu ularning farzandlarini qanday tarbiyalashi va takomillashtirishidir. Demak, har bir yoshga xos bo‘lgan bolalarga ziddiyatlar sabablarini tushuntirib, ota-onalarga bolani bu qiyinchilikdan muammosiz olib chiqishga o‘qituvchi yordamga kelishi kerak. Shuning uchun ota-onalar va o‘qituvchilar bolalarni tarbiyalash ustida birgalikda ishlashlari shart. U ma‘naviy-axloqiy saboqlarni madaniyatli hayot bilan bog‘lab, tarbiyaning barcha bosqichlariga asoslanishi zarur, shundagina yetuk xulq-atvorga ega, o‘z vazifalarini aniq biladigan ongli shaxs bo‘lib shakllanadi. Bu maqsadga faqat haqiqiy

o'qituvchilar ishtirokida erishish mumkin. Faqat bolalarni sevadigan va o'z ishiga berilgan, sadoqatli o'qituvchigina ularni mehribon inson bo'lishda bebaho yordam bera oladi.

XVI asr chex pedagogi Yan Amos Komenskiy bolalarga ustozlik qilgan va tarbiya bergan o'qituvchini yuqori baholagan: "o'qituvchi – abadiy nurning xizmatkori". U barcha fikrlariga, harakatlariga aql donini sepadigan va nur sohadigan shafqatsiz olov egasidir. Abadiy nur xizmatkorlariga mukammal xizmat va vazifalar topshirilgan, quyosh ostida ulardan yaxshiroq narsa yo'q. Ammo, sir emaski, so'nggi paytlarda yoshi kattalar bilan yoshi kichik bolalar o'rtasidagi munosabatlar, o'qituvchining o'quvchi bilan munosabati har doimo ham yaxshi bo'lavermagan. Bolalar o'z o'qituvchilariga nisbatan yaxshi ko'rishlilikdan boricha uzoq turgan, ko'pincha qo'rquv, nafrat va hurmatsizlik kabi his-tuyg'ularni boshdan kechirishlari damba-dam kuzatiladi. Buning sababi, o'qituvchi va o'quvchi shaxslarining sifatiga hamda o'qitish usullarining sifatiga bog'liq bo'lishi mumkin. Yaqinda ko'plab ota-onalar o'quvchilarni sovet davridagi o'quvchilar bilan taqqoslashmoqchi bo'ldi. "Ilgari bunday holatlar bo'lmagan. O'quvchilar kattalarga e'tiroz bildirmaydi hamda bir-birlarini kamsitmaydilar. Hozirgi maktabdagi bezoriliklar qo'rqinchli" – degan gaplar ko'plab aytiladigan bo'ldi. Ijtimoiy muhitdagi vaziyatlar maktabga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniq, ammo maktab jamiyatdagi salbiy holatlarning oldini olishda katta rol o'ynaydi. Demak, tarbiya bag'rikenglik muhitini yaratishdan boshlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barry B. Second Thoughts – and Some First Thoughts Revived //Paul Kelly (ed.) Multiculturalism Reconsidered. «Culture and Equality» and its Critics. Polity Press, 2002. – P. 204–238.
2. Locke J. A Letter Concerning Toleration. The edition referred to is translated by W. – Gough. Oxford University Press, 1968. – P. 121.
3. Mill J.S. Owolnosc. – Warszawa, 1853.
4. Schopenhauers Aphorismen zur Lebensweisheit, Leipzig: Insel-Verlag, 1917, – P. 19.
5. Аболин Б.И. Концепт «толерантность» в когнитивно-дискурсивном аспекте: дис. ... канд. филол. наук. Екатеринбург, 2009. 27 стр
6. Грей Д. Поминки по просвещению. Политика и культура на закате современности. – М., 2003.
7. Грей Д. Толерантность: теория и практика. Часть II. DOI: 10.31249/rphil/2023.02.10. 153-181 стр;
8. Дмитриев Г.Д. Многокультурное образование. – М.: Народное образование, 1999. – 208 стр.
9. Логинов А.В. Толерантность: «За» и «против» Вестник Пермского университета. Философия. Психология. Социология. Выпуск 1 (13). – Пермь, 2013. 44-49 стр.
10. Меньшиков А.В. Типы теоретического обоснования толерантного отношения / А. В. Меньшиков // Толерантность в современной цивилизации: материалы междунар. конференции, Екатеринбург, 14-19 мая 2001 г. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2001. – С. 162-166.
11. Мұсылманов А. Тәрбие жұмысының модульдік технологиясының модулі. – Алматы, 2009. 28-29 б.
12. Ролз Джон. Теория справедливости. – Москва, 2010. – 536 стр.
13. Самсонов А. Л. Модели общества: от хаоса к толерантности / А.Л.Самсонов // Экология и жизнь. – 2003. – № 2. – С. 20-25.
14. Уолцер М. О терпимости. – М., 2000. – С. 24–25.
15. Хомяков М. Б. Проблема толерантности и христианская философия раннего средневековья / М.Б. Хомяков // Россия – Запад: философские основания социокультурной толерантности: материалы Летней школы молодых ученых (Екатеринбург, сентябрь 2000 г): в 2-х частях. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2001. – Часть 2. – С. 333-406 стр.
16. <https://kpfu.ru/portal/docs/F2070830177/12>. – Gagaev. pdf.